

“SABOT UL-OJIZIN”DA SABR VA E’TIQOD MASALASINING BADIY TALQINI

Xomitaliyeva Madina

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz adabiyotimizda axloqiy-didaktik ruhdagi asarlar alohida o‘rin tutadi. Shular qatorida So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari ham xalqimiz ma’naviy, diniy tarbiyasida yuz yillar davomida qo‘llanilib kelayotgan enh muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada “Sabot ul-ojizin”da sabr va e’tiqod g‘oyasi qanday ifodalangani, unga bog‘liq hikoyatlar va bu g‘oyalar badiiy vositalar orqali kuchaytirilganligi tahlilga olinadi.

Kalit so‘zlar: e’tiqod, sabr-toqat, ruhiy poklik, komillik, matonat, ibodatda sobitlik, badiiy tasvir.

Buyuk tasavvuf shoiri So‘fi Olloyor qalamiga mansub “Sabot ul-ojizin” asari musulmon ahliga milliy va diniy merosimizni yetkazishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu asar o‘z davrida Qur’oni Karim va Hadisi sharifdan keyin maktablar va madrasalarda asosiy o‘quv qo‘llanmalaridan biri sifatida o‘qitib kelingan. Asarda islom dinining musulmon kishi bilishi zarur bo‘lgan shar’iy hukmlari, aqidaviy masalalarning xalqqa tushunarli va sodda tilda yoritilganligi sababli barcha yosh-u qari tomonidan o‘qib o‘rganilgan. Asar hajman 300 misradan ortiq bo‘lib, dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.

Asarning nomlanishidan bilishimiz mumkinki, asar Allohga muhtoj bandalarga sabr-qaror ato etuvchi yo‘l sifatida yozilgan, asar nomining tarjimasi ham “ojizlarning sabri” degan ma’noni anglatadi. Asarda sabr, matonat, halollik, taqvo, nafsni tiyish, kamtarlik kabi ruhiy-axloqiy fazilatlar Qur’on va hadis asosida badiiy talqin etilgan. Muallif sabrni insonning qalbini poklovchi, uni sinov va to‘siqlardan muvaffaqiyatli o‘tkazuvchi eng ulug‘ fazilat sifatida talqin qiladi. Tasavvuf ta’limotida ham sabr nafs bilan

kurashish yoʻlida eng muhim va asosiy bosqich hisoblanadi. Asarda sabrning uch turi haqida soʻz boradi: turli bala va musibatlarga sabr qilish, ibodatda sabr bilan sobit boʻlish hamda gunohlardan tiyilishdagi sabr. Soʻfi Olloyor sabrni shunday taʼriflaydiki, sabrning mukofoti jannatdir, sabrsizlik esa insonni maʼnaviy halokatga olib boradi. Shu jumladan, u sabrni iymonning yarmi sifatida taʼriflaydi, bu Qurʼon va hadislardagi mazmun bilan uygʻunlashadi. Bir tomondan, inson Allohdan boʻlgan taqdir-u qazoga rozilik ham sabrdan nishonadir, boshiga tushgan hech bir mashaqqat va qiyinchiliklarda atonat koʻrsatadi, bu esa sabrning amaliy koʻrinishidir. Asarda “ Solik qazogʻa rozi va balogʻa sabrli boʻlmogʻining bayoni” qismida ham sabrning kuchli koʻrinishini bayon qiladi. Unda keltirilishicha, Allohning roziligini istagan bandaning boshida agar tegirmon toshi yurgizilsa ham zinhor tang ahvolga tushmaydi. Yaratganning suyukli bandasi agar har kuni gʻam-anduhda oʻtsa ham sira parvo qilmaydi. Shu oʻrinda qattiq sabr qilish borasida shunday bayt keladi:

Agar magʻzi diling ayrilsa yo poʻst,

Yigʻini yigʻ, agar chin qulsan, e doʻst.

Bu baytdan shunday maʼno anglashiladiki, Ollohning quli ekansan, agar yuraging magʻzi boʻlgan farzandingdan yoki tanangga poʻst kabi boʻlgan jufti halolingdan ayrilsang ham dod-faryodingni yigʻishtirib, oʻzingni qoʻlga ol, chunki qulda Xojasi tarafdin kelgan har narsaga: goh u yaxshilik, goh u gʻam-anduh boʻlsa ham rozi boʻlishdan boshqa iloj yoʻq.

Ushbu asar tasavvufiy ruhda boʻlganligi sababli unda eʼtiqod masalasi markaziy oʻrin egallaydi. Shoir eʼtiqodni faqat diniy aqidaning bilimi emas, balki qalbning sobitligi, insonning Allohga chin bogʻlanishi sifatida sharhlaydi. Eʼtiqod nafaqat til bilan tasdiqlash, balki qallda Allohni tanib, unga butkul tavakkal qilish demakdir. Asarda inson boshiga tushadigan sinovlar eʼtiqodni kuchaytiruvchi, iymonni mustahkamlovchi imtihon sifatida talqin qilinadi. Asarda esa kuchli eʼtiqod va taqvo egasi sifatida Robiya Adaviya shaxsiga bogʻliq hikoyat ham keltirib oʻtiladi. Robiya Adaviya hijriy 100-yillarda Basra shaxrida yashab oʻtgan il soʻfiy ayollardan sanaladi. Uning zuhd-u taqvosi, yuksak eʼtiqodi va

Alohga bo'lgan cheksiz muhabbati islom tarixida yorqin iz qoldirgan va bu haqida turli tarixiy manbalarda ko'plab tilga olingan. Hikoyaning qisqacha mazmuni shundan iboratki, Robiya Adaviya har on gunohlari uchun Allohning xavfidan qalbi to'lib ko'z yosh to'kadi va bu yosh qizil qon edi, Bunda uning valiy sifat ayol ekanligini bilish mumkin. Robiya bilan bog'liq hikoyat va voqealar ko'p keltiriladi, yana biri shuki, u yolg'iz ayol bo'la turib yayov yo'l bosib, xasta jonini sudrab, nihoyat, yetti yil deganda Ka'ba ziyoratiga erishadi. Bu voqeda eng e'tibor va ta'sirli jihati shundaki, Robiya Adaviyani Baytullohning o'zi ziyorat qilish uchun keladi. Yana bir so'fiy zot Baytulloh ziyorati uchun yo'lga tushib, har qadamida ikki rakatdan namoz o'qiydi va shu zot Ka'baga yetib keldim deganda, Ka'ba o'rnida yo'q bo'ladi va bu haqida so'raganda u Robiyani ziyorat qilish uchun ketgani xabarini eshitadi. Bu voqea ilm ahllari va xalq orasida ma'lum-u mashhur bo'ldi. Jumladan, Islom olamida tariqat ulug'lari tomonidan unga "Tojur rijol" ya'ni "Er kishilar toji" degan nom berilgan. Aynan shuning uchun So'fi Olloyor uning obrazidan foydalanib, e'tiqodning eng yuksak darajasini ibrat qilib ko'rsatadi. Asarda e'tiqod masalasi inson ma'naviyatining markazi sifatida ko'rsatiladi. Yuqoridagi hikoya esa bu g'oyani badiiy va ramziy tarzda yanada kuchaytirib beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Sabot ul-ojizin" asaridagi har bir mavzu va ung ilova qilingan hikoyalar Allohni taniydigan komil inson darajasiga yetish yordam beruvchi ma'naviy vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Hamda asardagi tasavvufiy ma'nolar barchamiz uchun dastur ul-amal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. (Nashrga tayyorlovchi: Rashid Zohid). – Toshkent:Cho'lpon, 1991.
2. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin sharhi, Ravoyih ur-Rayhon (Nashrga tayyorlovchi: Rashid Zohid). Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2021.
3. Ziyouz.com kutubxonasi.